

SPECIFIC FEATURES OF THE SPEECH OF BLIND PRESCHOOL CHILDREN

Maxmudova Madinaxon Sobirxonovna

Maxsus pedagogika kafedrası dotsenti, PhD

ORCID 0009-0007-1749-5379

Qahhorova Maftuna Tolibjonovna

Maxsus pedagogika (Logopediya) yo'zalishi magistranti

Abstract

For human development and growth as a complete person, all its members must function healthily and fully. Unfortunately, not all people are healthy in all respects. Despite this, people with various disabilities also strive for perfection. We can safely include blind people in this group.

Introduction

MAKTABGACHA YOSHDAGI KO'ZI OJIZ BOLALAR NUTQINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Maxmudova Madinaxon Sobirxonovna

Maxsus pedagogika kafedrası dotsenti, PhD

ORCID 0009-0007-1749-5379

Qahhorova Maftuna Tolibjonovna

Maxsus pedagogika (Logopediya) yo'zalishi magistranti

Inson taraqqiyoti va komil inson bo'lib yetishuvi uchun uning barcha a'zolari sog'lom va to'laqonli faoliyat yuritishi zarur. Afsuski, barcha insonlar ham har tomonlama sog'lom emas. SHunga qaramasdan turli nuqsonga ega bo'lgan shaxslar ham komillikka intilishadi. Bular qatoriga qo'rqmasdan ko'zi ojiz shaxslarni ham qo'sha olamiz.

Ma'lumki, bir analizator faoliyatining buzilishi boshqa analizatorlarning buzilishiga sabab bo'ladi.

Ko'rish analizatorining faoliyati bo'lganligi sababli ko'r va zaif ko'ruvchi bolalarning nutqiy rivojlanishi o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, bu nutqda o'z aksini topadi (exolaliya, "formalizm", so'z turkumining buzilishi va boshqalar). Ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalar nutqining rivojlanishini taxlili shuni ko'rsatadiki, ularning ko'pchiligida sistemali nuqsonlar kuzatiladi va nutqning barcha komponentlari buzilgan bo'ladi. (fonetika, leksika, grannatika). Hozirgi vaqtda ko'r va zaif ko'ruvchi bolalardagi nutq kamchiligi murakkab nuqson ekanligi hamda nutq va ko'rish faoliyatining sustligi o'zaro bog'liqligi nazariy va amaliy izlanishlarda isbotlangan.

Ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalar nutq kamchiliklari turlichadir. Ular strukturasi va darajasi sifatidan murakkab bo'lib, nutqni R.E.Levina ta'kidlaganlaridek, yagona sistemadek qamrab oladi va bunda nutq kamchiliklari, nutq kamchiliklarining yagona yadrosi bo'lib qolmaydi. Bu toifa bolalarda nutqning rivojlanishi murakkab sharoitda kechadi.

Ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalar nutqiy xususiyatlarini psixologlar tomonidan o'rganilish tarixiga nazar soladigan bo'lsak, bu toifa bolalar nutqini o'rganish XIX asr oxiri XX asr boshlariga to'g'ri keladi. K.Byurkin, A.Krogiuslarning fikrlariga ko'ra, ko'rishda nuqsoni bo'lgan shaxslarda nutqni rivojlanishiga ularda ko'ruv idroki va tasavvurlarining torligi to'sqinlik qiladi. Mashxur psixolog K.Byurxlenning yozishicha, "Ko'r bola so'zlarni eshitadi, lekin uni mazmunini predmet bilan bog'lay olmaydi yoki noto'g'ri qo'llaydi".

A.Shtumpfnings fikricha, ular "begona nutq"ni qo'llaydi, ular so'zni noto'g'ri o'zlashtiradi va yangi so'zlar bilan almashtira olmaydi.

Fransuz ma'rifatparvari D.Didro birinchi marta ko'rlarning "maxsus tili" bo'lishi kerakligini va zaruriyatini ta'kidlab o'tgan. Bu qarashlar XIX asr oxiri XX asr boshlarida V. Shtumpf, A.Kroguis, A.Skrebitskiy ishlarida ham davom ettirilgan. Tadqiqotlarning ko'rsatilishicha, ko'rlarda nutqning fonetik tomonini shakllanishida ishtirok etadigan intilish, ko'rish, kinestetik tomonlarning zararlanishi ular nutqini normal shaxslar nutqidan orqaga suradi.

Ko'rlardagi nutqning asosiy kamchiligi bu tovushlar talaffuzining buzilishidir. Logopediyada mavjud izlanishlar asosan ko'rishda nuqsoni bor bolalarning talaffuzidagi nuqsonlariga bag'ishlangan ishlar M.E.Xvatsev, S.L.Shapiro, A.D.Shapilo, S.V.Yaxontovyalarga tegishli.

Ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalardagi tovushlar talaffuzidagi nuqsonlar asosan bog'cha va kichik maktab yoshidagi bolalarda uchraydi. Bu bolalar orasida signatizmlar (S,Z,TS,SH,J,CH), lambdatizm (A), rotatizm (R) va "d,t" tovushlarining noto'g'ri talaffuz etish xollari ko'p uchraydi. Ko'r bolalarning nutq kamchiliklari ular yozuvida ham aks etadi. E.M.Xvatsev ma'lumotlariga qaraganda 25 % hatolar noto'g'ri talaffuz bilan, 46% hatolar esa ovoz buzilishlari sababli hato yozilar ekan. Logopediyada ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalar nutqiy xususiyatlarini va rivojlanishini R.E.Levina, V.K.Orfinskayalar o'rganishgan. Shuningdek, olimlar O.L.Jiltsova, S.L.Korobko, N.S.Kostyuchek, N.A.Krilova, T.P.Svirnyuk larning izlanishlari ham ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalar nutqidagi kamchiliklar va ularni bartaraf etishi bilan bog'liq.

G.V.Grigoreva, V.V.Deniskina, M.Zaoreka, M.I.Zemtsova va L.I.Solntsevalarning tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, ko'rishida nuqsoni bo'lgan va sog'lom odamlarda nutqni shakllanishi deyarli bir xil keladi, ammo, ko'rishning yo'qligi yoki uni chuqur buzulganligi analizatorlarning o'zaro aloqasini buzadi va buning oqibatida nutq buzilishlari sodir bo'ladi.

G.V.Grigoryeva, V.Z.Deniskina, L.I.Glaskina, E.V.Seleznovalarning fikricha, ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalar atrofdagi odamlar bilan muloqotda imo-ishoralardan foydalanmaydi. Bu toifa bolalar hamkorini o'ziga qaratish uchun, hamkoriga yaqinlashishi kerak.

Nutq 2 a faoliyatni bajaradi- kommunikativ va fikrni bildirish. Nutqni shakllanishi psixologik jarayonlarni rivojlanishishi bilan uzviy bog'liqlikda. Bu fikrlar (B.G.Ananayev, L.S.Vigotskiy, R.S.Nelov, S.L.Rubinshteyn, D.I.Feldshteyn va boshqalar)ning ilmiy ishlarida o'z aksini topgan. Ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalar tafakkur operatsiyalarini taqqoslash, umumlashtirish va klassifikatsiyalash qiyinchiliklarga uchraydi. Ko'rishida nuqsoni bor bolalarda, sog'lom tengdoshlariga qaraganda kechroq tafakkur operatsiyalari taqqoslash, umumlashtirish, klassifikatsiyalash ancha kech shakllanadi. (M.I.Zemtsova, V.A.Lonina, I.S.Morgulis).

L.S.Volkova, M.I. Zemtsova, I.V.Novichkova, L.I.Plaksina, L.I.Solntsevalarning fikriga ko'ra ko'rishida nuqsoni bor bolalar nutqining rivojlanmay qolishiga sabab, ko'ruv idrokining yo'qligi yoki buzilganligidir.

Kommunikativ faoliyat ko'rishida nuqsoni bor bolalarni atrof-olam haqidagi ma'lumotlarni olishda va ularni shaxs bo'lib shakllanishida, ularda bilish va xissiy

doiralarni rivojlantirishning muhim vositalaridan biridir. Ko'rishida nuqsoni bor bolalar kommunikativ faoliyatini rivojlantirish maxsus korrektsion tadbirlarni talab etadi.

Ko'rish nuqsoni bolalardagi ruhiy rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. (L.S.Volkova, L.S.Vigotskiy, G.V.Grigoryeva, D.M.Mallaev, L.I.Plaksina, L.I.Solntseva) larning fikricha bolalardagi ruhiy rivojlanishning buzilishi nutq buzulishlariga olib keladi.

M.I.Lisina, E.I.Kovalevskiylar ko'rishida nuqsoni bor bolalarni lug'at boyligini o'rganish va rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, olim bu toifa bolalar lug'ati sog'lom tengdoshlarinikiga qaraganda ancha kambag'alligini aniqlagan. Bunga asosiy sabab bolalardagi ko'ruv idrokining yo'qligi yoki yaxshi emasligi oqibatida so'z va predmet orqasidagi bog'liqlikning yo'qligidir.

Ko'rishida nuqsoni bor bolalarni og'zaki nutqni va bog'langan nutqini o'rgangan olim N.A. Krilovning bergan ma'lumotlariga qaraganda ko'rishida nuqsoni bor bolalarning 47,6% ida nuqsonlar uchrar ekan.

L.S.Volkova, M. I. Zemtsova, O.L.Jiltsova, N.S.Kostyuchek, E.M.Xvatsev, N.A.Krilovalarning, fikriga ko'ra ko'rishida nuqsoni bor bolalardagi nutqiy nuqsonlarni maktabgacha yoshda bartaraf etmaslik, keyinchalik ularni savodga o'rgatishda qiyinchiliklar bilan birgalikda yozma nutq kamchiliklarini yuzaga kelishiga ham sabab bo'ladi.

Statistika materiallari shuni ko'rsatadiki nutq kamchiliklari ko'ruvchi bolalarga nisbatan ko'rishida chuqur kamchiliklar bor bolalarda ko'proq uchraydi.

Olib borilgan izlanishlar shu kategoriyadagi bolalarning nutqini shakllanganligini to'rt darajaga ajratishga imkon beradi:

Birinchi daraja: Talaffuzdagi ayrim kamchiliklarning bo'lishi bilan ifodalanadi.

Ikkinchi daraja: Faol lug'at cheklangan so'z va predmet obrazini solishtirishda, umumlashtiruvchi tushunchalar asosida hikoyalar tuzishda hatolarga yo'l qo'yiladi. Ko'rishida nuqsoni bor bolalar talaffuzidagi kamchiliklar sigmatizmning turli ko'rinishlarida lambdatizm, parasimatizm, parorotatizm, poralambdatsizmda namoyon bo'ladi. Tovushlar talaffuzi va fonematik tasavvurlar eshitish differentsiyatsinining rivojlanishida kamchiliklar kuzatiladi. Fonematik taxlil shakllanmagan bo'ladi.

Uchunchi daraja: Ekspressiv nutq lug'at boyligining sustligi bilan ajralib turadi. Umumlashtiruvchi tushunchalarni bilish, so'z va predmet obrazini solishtirish

darajasi past bo'ladi. Mustaqil nutqning Grammatik tomoni buzilgan, u faqat predmetlarni nomlash va bir, ikki so'zli gaplardan iborat bo'ladi. Murakkab hikoyalarni bayon etish rivojlanmagan, talaffuz qilish va eshitishi differentsiyasi sust shakllangan bo'ladi.

To'rtinchi daraja: Ekspressiv nutq juda cheklangan, umumlashtiruvchi tushunchalar va so'z – predmet obrazini solishtirishda jiddiy kamchiliklar bo'ladi. Bog'langan nutq ayrim so'zlardan iborat ekologiyalar kuzatiladi. Nutqning grammatik tuzilishi aniqlanishlarga qaratilgan topshiriqlar va eshitish differentsiyasiga oid topshiriqlarni bajara olmaydilar. Fonematik tahlil va sintezning rivojlanmaganligi kuzatiladi (M.Yu.Ayupova, L.S.Volkova).

Ko'rishida nuqsoni bor bolalar nutqini o'ziga xosligi va rivojlanishini o'rgangan olimlar L.I.Bojovich, M.I.Lisina, A.I.Solntseva, A.V.Zaparojets, A.N.Leontev va boshqalarning fikriga ko'ra bu toifa bolalar nutqini rivojlanishiga bolalarning atrofdagi odamlar va u yashayotgan muhitning ta'siri juda katta. Bu bolalardagi nutqiy kamchiliklar maxsus korreksion tadbirlar orqali bartaraf etiladi.

M.M.Vitkovskaya, V.Z.Deniskina, G.V.Nikulina, L.I.Plyuksika, E.N.Podkolzina, L.S.Solntseva, V.A.Feoktistovalarning ilmiy tadqiqotlari natijalarini ko'rsatishicha ko'rishida nuqsoni bor bolalar nutq kamchiliklarini bartaraf etishda bolalarning psixologik xususiyatlarini, individual xususiyatlarini hisobga olish bilan birgalikda ularning kinestetik sezgilariga tayanish ham yaxshi natijalar beradi.

Korreksion ta'lim jarayonida kompleksli keng qamrovli ta'sir ko'rsatiladi. Bu ta'sir logoped, tiflopedagog va tarbiyachilar tomonidan turli mashg'ulotlar davomida amalgam oshiriladi. Mashg'ulotlar bolalarning ko'rish qobiliyatini, nutqi qabul qilish usullari va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda olib boriladi. Shu asosda logopedik guruhlar tashkil qilinadi. Ko'r bolalar bilan ishlashdagi qiyinchiliklarni o'ziga xosligi inobatga olinib, mashg'ulotlar uzoq vaqt individual ravishda olib boriladi.

Ko'rishida nuqsoni bo'lgan bolalarda kuzatiladigan nutq kamchiliklari bilan bir qatorda nonutqiy funktsiyalarning shakllanmaganligi ham kuzatiladi. Nutq kamchiliklarini bartaraf etish o'yin, o'quv, mehnat faoliyati, hamda amaliy va musiqa mashg'ulotlarida amalgam oshiriladi. Ko'rishida nuqsoni bor bolalar nutqini rivojlanishida artikulyatsion apparat harakatchanligi ham alohida o'rin tutadi. (L.A.Novikova).

Tadqiqotlarning ko'rsatishicha nafaqat nutq apparatining harakatchanligi balki, ularga bog'liq ravishda (M.V. Kirzon, V.A.Safonov, G.A. Yakunin) qo'l, oyoq va boshqa muskullar harakati rivojlangan bo'lishi zarur. Masalan, nonutqiy muskullar harakati (qo'llar) so'zlarni ichida takrorlash va uni aytishda turli harakterdagi faolligini ta'minlaydi. Ko'rishda nuqsoni bor bolalarda kuzatilayotgan nutqiy buzilishlar bir-biriga bog'liq ravishda yuzaga keladi. Bolalarda ichki nutqning rivojlanmaganligi yoki buzilganligi og'zaki va lyozma nutqda ham o'z aksini topadi. (L.S.Filchikova, M.E.Bernadskaya, O.V. Parameylarning " KO'rishda nuqsoni bo'lgan bolalar nuqsonlarni erta yoshda aniqlash va korrektsiyalash" nomli kitobida ko'rishda nuqsoni bor bolalardagi nutq nuqsonlarini erta aniqlash va ilk yoshdan boshlab korrektsiyalash zarurligini, shuningdek nutq nuqsonlarini boshqa psixik jarayonlarni ham birgalikda bartaraf etish lozimligini e'tirof etilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Madinakhan, M., & Odinakhan, R. (2023). STAGES OF UPBRINGING AND DEVELOPMENT OF SPEECH-IMPAIRED CHILDREN IN THE FAMILY. American Journal of Interdisciplinary Research and Development, 16, 33-37.
2. Maxmudova, M., & Xasanova, I. (2023). DIZARTRIYA NUTQ BUZILISHI TOVUSHNING TALAFFUZ TOMONIDAN BUZILISHI SIFATIDA. Interpretation and researches, 1.
3. Madinakhan, M., & Iroda, K. (2023). SPECIFIC FEATURES OF DYSARTHRIA SPEECH DISORDER IN CHILDREN WITH SPEECH DEFICIENCY. American Journal of Interdisciplinary Research and Development, 16, 42-45.
4. Saule, Z., & Sobirxonovna, M. M. (2023). DISRUPTION OF SPEECH, WHICH IS NOT VISIBLE IN RETARDATION OF MENTAL DEVELOPMENT. Academia Science Repository, 4, 46-50.
5. Madinakhan, M. (2023). THE THEORETICAL SIGNIFICANCE OF THE DEVELOPMENT OF THE PROFESSIONAL COMPETENCE OF THE TUTOR OF A SPECIAL EDUCATIONAL INSTITUTION. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 11(11), 353-356.



6. Shukhratovich, M. K. (2023). WAYS TO OVERCOME SPEECH DEFECTS IN THE EDUCATION OF PARALYZED CHILDREN. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 11(11), 348-352.
7. Xurshid, M. (2023). Maxsus yordamga muxtoj bolalar va o'smirlarni ijtimoiy reabilitatsiyasida oilaning roli. Confrencea, 12(12), 338-342.
8. Xurshid, M. (2023). Rivojlanishida nuqsoni mavjud bolalar oilalarida oilaviy munosabatlarning rivojlanishi davrlari. Confrencea, 12(12), 332-337.
9. Xurshid, M. (2023). Maxsus yordamga muxtoj bolalar oilalari bilan olib boriladigan psixoterapevtik ish. Confrencea, 12(12), 326-331.
10. Khurshid, M. (2023). Views Of Eastern Thinkers On The Education Of Children With Special Needs. JournalNX, 9(11), 210-215.